

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
<b>J.G'.Numonova</b>	
The role of podcasts and audiobooks in language education.....	877
<b>J.G'.Numonova</b>	
The influence of technological advancements on language assessment methods.....	881
<b>O.Z.Dadajonov</b>	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini.....	885
<b>S.A.Yusupova</b>	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels.....	890
<b>N.M.Merganova, N.A.Orifjonova</b>	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari.....	894
<b>G.A.To'lanboyeva</b>	
Muloqot va uning xususiyatlari.....	898
<b>S.A.Xaqnazarova</b>	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi.....	901
<b>N.M.Merganova</b>	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari.....	905
<b>C.X.Azimova</b>	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах.....	908
<b>N.A.Komilova</b>	
The representation of gender in English idiomatic expressions.....	911
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati.....	915
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar.....	919
<b>S.To'lanov</b>	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi.....	923
<b>S.To'lanov</b>	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv.....	927
<b>Y.U.Abdurazzakov</b>	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi.....	931
<b>I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova</b>	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari.....	934
<b>D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova</b>	
Challenges in translating Uzbek literature to English.....	938
<b>D.S.Usmonova, N.R.Rajabova</b>	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language.....	942
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi.....	946
<b>S.A.Xaqnazarova</b>	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana.....	949
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon yasovchi affikslarning o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari.....	953
<b>G.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limni tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi.....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi.....	961
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi.....	966
<b>S.I.Quziyev</b>	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....	970
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi.....	975
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
About the term of persuasion.....	979



UO'K: 37.091.3:811.112:2

**CHET TILDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING YO'LLARI****ПУТИ РАЗВИТИЯ УСТНОЙ РЕЧИ НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ****WAYS TO DEVELOP ORAL SPEECH IN A FOREIGN LANGUAGE****Merganova Nigora Mamadodilovna**

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada chet tili darslarida og'zaki nutq kompetentsiyasini rivojlantirishning yo'llari, chet tilda og'zaki axborot berish, suhbatlasha olish va o'rganilgan mavzuga bog'liq chet tildagi nutqni tinglab tushunish malakalarini egallash to'g'risida so'z boradi. Maqolada chet tilda og'zaki nutqqa ta'sir etuvchi omillar, hususan motivatsiya, tilga bo'lgan qiziqish, ta'lim strategiyalari, til qobiliyati, ziyolilik kabilar bir-biri bilan bevosita bog'liqligi misollar yordamida asoslangan. Amerikalik olim Robert Gardner chet tilda og'zaki nutqqa o'rgatishda unga ta'sir etuvchi omillardan biri bu motivatsiya ekanligini, motivatsiya bevosita til o'rganuvchining ongiga kuchli ta'sirga egaligini ta'kidlaydi. Shuningdek, maqolada nemis tilini mutaxassislik sifatida o'rganuvchi talabalarga darsdan tashqari holatlarda ham gapirishni mashq qilish, kurslarga qatnashish, ijtimoiy tarmoq imkoniyatlaridan foydalanish kabilar ham alohida ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Talabalar tilni ongli ravishda o'rganishlari, qanday usul ularga mos kelishi va ularning og'zaki nutqini rivojlanishiga olib keluvchi yoki to'siq bo'luvchi omillarni bilishlari zarurligi ta'kidlangan. Maqolada nemis olimi B. Taubenbokning darslarda og'zaki nutqni rivojlantirish uchun ishlab chiqqan usul va texnologiyalariga ham alohida urg'u berilgan.

**Аннотация**

В данной статье идёт речь о способах развития устной речевой компетентности на занятиях иностранным языком, умении давать устную информацию на иностранном языке, уметь разговаривать, а также приобретать навыки слушания и понимания речи на иностранном языке, связанные с изученной темой. В статье на примерах напрямую связаны между собой факторы, влияющие на устную речь на иностранном языке, особенно мотивация, интерес к языку, образовательные стратегии, языковые способности, интеллект и т.д. Американский ученый Роберт Гарднер утверждает, что мотивация является одним из влияющих факторов при обучении говорению на иностранном языке, а мотивация оказывает сильное влияние на сознание изучающего язык. В статье также отмечается, что практика разговорной речи вне занятий, посещение курсов, использование возможностей социальных сетей имеют особое значение для студентов, изучающих немецкий язык как специальность. Подчеркивалось, что студенты должны осознанно изучать язык, какой метод им подходит, а также факторы, которые приводят или препятствуют развитию их устной речи. В статье также акцентируются методы и технологии, разработанные немецким ученым Б. Таубенбокком для развития устной речи на занятиях.

**Abstract**

This article talks about the ways to develop oral speech competence in foreign language classes, the ability to give oral information in a foreign language, to be able to talk, and to acquire the skills of listening and understanding speech in a foreign language related to the studied topic. In the article, the factors affecting oral speech in a foreign language, especially motivation, interest in language, educational strategies, language ability, intelligence, etc., are directly related to each other, based on examples. American scientist Robert Gardner states that motivation is one of the influencing factors in teaching speaking in a foreign language, and motivation has a strong influence on the mind of the language learner. The article also notes that practicing speaking outside of class, attending courses, and using social networking opportunities are of particular importance to students studying German as a specialty. It was emphasized that students should learn the language consciously, which method is suitable for them, and the factors that lead to or hinder the development of their oral speech. The article also emphasizes the methods and technologies developed by the German scientist B. Taubenbock for the development of oral speech in classes.

**Kalit so'zlar:** og'zaki nutqqa ta'sir etuvchi omillar, motivatsiya, tilga bo'lgan qiziqish, ta'lim strategiyalari, til qobiliyati, ziyolilik, chet tilda og'zaki axborot berish, suhbatlasha olish va o'rganilgan mavzuga bog'liq chet tildagi nutqni tinglab tushunish malakalari.

**Ключевые слова:** факторы, влияющие на устную речь, мотивацию, интерес к языку, образовательные стратегии, языковые способности, интеллект, способность давать устную информацию на иностранном языке, навыки разговора и навыки понимания на слух, связанные с изучаемой темой.

**Key words:** factors affecting oral speech, motivation, interest in language, educational strategies, language ability, intelligence, ability to give oral information in a foreign language, conversation skills and listening comprehension skills related to the studied topic.



### KIRISH

Oliy o'quv yurtlarida chet til o'qitishning amaliy maqsadlaridan biri og'zaki nutqni o'rgatishdir. Mazkur oliy o'quv yurtlarining dasturiy talablariga binoan, talabalar chet tilda og'zaki axborot berish, suhbatlasha olish va o'rganilgan mavzuga bog'liq chet tildagi nutqni tinglab tushunish malakalarini egallashlari talab etiladi.

Chet tilda olib boriladigan muloqot kelajakdagi ixtisoslik faoliyati bilan bog'liq kasbiy bahs xarakteriga ega bo'ladi. Talabalar chet til darslarida suhbat va bahs munozarada ishtirok etish davomida quyidagi malakalarga ega bo'ladilar:

1. Axborot so'rash, auditoriyada axborot bilan chiqish, muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini bildirish, bahslashish, gaplarni bexato tuzish;

2. Muloqotda etiket mezonlariga amal qilish, iltimos, minnatdorchilik bildirish, uzr so'rash, qo'shimcha ma'lumotlar so'rash, suhbatdoshini muloqotga tortish, muayyan qolipdagi nutqiy namunalardan foydalanish;

3. Muloqot jarayonida ixtisoslikka oid so'z va iboralarni qo'llash, ilmiy tushunchalarni ifodalovchi iboralardan keng foydalanish;

4. Dasturda ko'rsatilgan mavzular bo'yicha ijtimoiy, maishiy, siyosiy, madaniy, o'quv ta'limiy va kasbiy sohalar bo'yicha muloqot jarayonida axborotlar olish va berish, suhbatdoshni muloqotga tortish, fikr almashish;

5. O'qilgan yoki tinglangan matn mazmuniga tanqidiy baho berish, o'z fikrini bildirish va hokazo. "Oliy o'quv yurtlari dasturida chet tilda gapirishni o'rgatish oraliq ta'limiy maqsad bo'lishi bilan bilan birga, ta'lim vositasi sifatida nutqiy faoliyatning boshqa turlari o'zlashtirilishiga ko'maklashishi nazarda tutiladi" [1, 89].

6. Og'zaki nutqni o'rgatishda til tajribasini ishga solish, fikr va mulohazaga munosabat bildirish malakalari shakllantiriladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Talabalarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga oid adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish jarayonida biz quyidagi modellar mavjudligini aniqladik va ularni tanqidiy tahlil qildik. 1989 yilda ingliz olimi V.Levelt tomonidan chet tilda gapirish malakasini shakllanish jarayoni bo'yicha yaratilgan model, chet tillarni o'rganish borasida alohida ahamiyatga molikdir.

Ushbu model orqali V.Levelt og'zaki nutqni rejalashtirish, ya'ni aniq maqsad bilan qilingan harakatni nazarda tutadi. Bunda u "til o'rganuvchi shaxsning gapirish jarayonida nafaqat umumiy bilimlari balki lingvistik (grammatik, fonetik, leksik) va holatdan kelib chiqib so'zlashi kerakligini ta'kidlaydi".

Amerikalik olim Robert Gardner chet tilda og'zaki nutqqa o'rgatishda unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishni tavsiya etadi va 1993 yilda chet tilda og'zaki nutqqa ta'sir etuvchi omillar modelini yaratadi. U o'z tadqiqot guruhi bilan birgalikda chet tilini mutaxassislik sifatida o'rganuvchilar o'rtasida tadqiqot olib borgan va ularda og'zaki nutqni rivojlantirish qanday omillarga tayanishini aniqlagan. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra o'rganuvchilarda asosan til o'rganishga xohish bo'lishi, ruhlantirish, tilni o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabat kabilar chet tilda og'zaki nutqni o'stirishga ta'sir qiladigan omillardir. Uning fikriga ko'ra, "chet tilda og'zaki nutqni amalga oshishida motivatsiya, tilga bo'lgan qiziqish, ta'lim strategiyalari, til qobiliyati, ziyolilik kabilar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir" [2,26]. Til o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabat va motivatsiya ko'proq ta'sirchan til o'rganuvchilarda yaqqol bilinadi.

K. Riemerning fikriga ko'ra, "R.Gardner o'z modelida motivatsiya va qo'rquv o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini ifodalaydi, biroq olim motivatsiya va til o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabat (qiziqish) o'rtasida esa o'zaro bog'liqlikni qayd etmaydi" [3, 35].

### NATIJA VA MUHOKAMA

Motivatsiya so'zi ruhlantirish degan ma'noni anglatadi va bevosita til o'rganuvchining ongiga kuchli ta'sir qiluvchi omillardan biri sanaladi. Motivatsiya natijasida kishida chet tilga bo'lgan munosabat, ya'ni qiziqish paydo bo'ladi. Bundan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, til o'rganishga bo'lgan qiziqish va motivatsiya o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir. Buni biz chet tili darsi jarayonida ham kuzatishimiz mumkin.

Masalan: ba'zi talabalar ota-onasi xohishiga qarab yoki ingliz tilidan ko'ra o'qishga kirish osonroqligi tufayli nemis tilini mutaxassislik yo'nalishi sifatida tanlagan. Aynan shu tariqa OO'Yuga



## TILSHUNOSLIK

o'qishga kirgan talabalarda kurs boshida loqaydlikni, darsga e'tiborsizlikni kuzatamiz, ularni bu tilga bo'lgan munosabatini o'zgartirish va motivatsiya berish maqsadida Germaniyada o'qiyotgan talabalarni misol qilib ko'rsatish, stipendiatlarni mashg'ulotlarga taklif etish, suhbatlar o'tkazish orqali ularda munosabat o'zgarishiga erishish mumkin.

Tajribadan ma'lumki, har qanday yoshdagi insonga eng avvalo rag'bat, turtki va qo'llab-quvvatlash, ruhlantirish va kichik yutuqlar uning tilga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga xizmat qiladi. Demak, motivatsiya va tilga bo'lgan munosabat o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud.

Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari masalasi nemis olimi B.Taubenbok tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda ham o'z aksini topgan. B.Taubenbok maktabdagi chet til darslarini kuzatadi va darsda gapira olmaydigan talabalarni o'rganib chiqib, chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning samarali yo'llarini izlaydi va 2007 yilda darslarda og'zaki nutqni rivojlantirish uchun quyidagi usul va texnologiyalardan foydalanishni tavsiya etadi:

1. Darsda qo'llanilishi zarur bo'lgan metodlarni oldindan o'rganib chiqish.
2. Og'zaki nutqda xatolar ustida ishlashning boshqa malakalarga nisbatan farqli jihatlarini o'rganish.
3. Darsga tanlanadigan ko'rgazma materialini aniq tahlil qilib chiqish.
4. Talabalar og'zaki nutqini rivojlantirishning mezonlarini ishlab chiqish.
5. Darsda og'zaki nutqni rivojlantiruvchi tayyor topshiriqlarga tayangan holda gapirishni mashq qilish.

**XULOSA**

B.Taubenbok o'zining yuqoridagi tamoyili bilan "Maktabda chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirish asosan o'qituvchi zimmasida bo'ladi" [4, 96] degan fikrni olg'a suradi, oliy o'quv yurtlarida esa talabalarning og'zaki nutqini rivojlanishida bevosita o'qituvchi va talaba teng harakat qilishi talab etiladi. Shu bois nemis tilini mutaxassislik sifatida o'rganuvchi talabalarga darsdan tashqari holatlarda ham gapirishni mashq qilish, kurslarga qatnashish, ijtimoiy tarmoq imkoniyatlaridan foydalanish kabilar ham alohida ahamiyatga ega ekanligi o'qituvchi tomonidan tushuntirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Talabalar o'zlari tilni ongli ravishda o'rganishlari, qanday usul ularga mos kelishi va ularning og'zaki nutqini rivojlanishiga olib keluvchi yoki to'siq bo'luvchi omillarni bilishlari zarurdir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Мисиров. С.А. Касб-хунар коллежларида инглиз тили ўқитишнинг лингводидактик асослари: Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2007., 89 б.
2. Gardner R., Peter D. A student's contributions to second language learning. Part II: Affective variables. *Language Teaching*, 1993. 26. 1-11.
3. Riemer Claudia. Der Faktor Motivation in der empirischen Fremdsprachenforschung. In Almut Küppers & Jürgen Quetz (Hrsg.) *Motivation revisited. Festschrift für Gert Solmecke. Hallenser Studien zur Anglistik und Amerikanistik* (S.35-48, Bd. 12). – Berlin, 2006 u.a.: LIT-Verlag.
4. Tesch B. Kompetenzorientierte Lernaufgaben im FSU. *Kolloquim FSU Band 38*. – Frankfurt am Main, 2010: S 96.